O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO'QON UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Qo'qon universiteti
Akademik ishlar bo'yicha prorektor
__________ J.Kambarov
"__" __________ 2025-yil

**Bitiruvchi kurs talabalari uchun majburiy fanlardan yakuniy attestatsiyasi sinovi**

# DASTURI



**60410400-Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi**

Qo'qon-2025

Ushbu dastur 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari yakuniy attestatsiya sinovlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan.

Ushbu dasturda 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi, savollari, baholash mezonlari va o'quv adabiyotlari hamda elektron ta'lim resurslari keltirilgan.

| | |
|---|---|
| **Tuzuvchilar:** | B.Turanboyev – Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi; |
| | B.Ismoilov – Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi; |
| | U.Jo'rayev – Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi; |
| **Taqrizchi:** | J.Kambarov – KU, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent. |

Ushbu dastur "________________" kafedrasida muhokama etilgan (2025 yil 08 Sentabr №2 -sonli bayonnoma).

"Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrasi mudiri ________ (imzo) **X.Rasulov**

Turizm va iqtisodiyot fakulteti dekani ________ (imzo) **J.Turg'unov**

Akademik ishlar departamenti boshlig'i ________ (imzo) **X. Gafurov**

**Yakuniy attestatsiya sinovi dasturi Qo'qon universiteti kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.** 2025-yil "__" ______dagi____-sonli bayonnoma



**60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun majburiy fanlaridan yakuniy attestatsiyasi sinovi**

**DASTURI**

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun majburiy fanlardan yakuniy attestatsiyasi sinovi **"Byudjet siyosati"**, **"Moliya bozorlari va institutlari"**, **"Xalqaro moliya"**, **"Mikroiqtisodiyot"**, **"Buxgalteriya hisobi"** fanlaridan test shaklida o'tkazilishi belgilandi.

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun **"Byudjet siyosati"**, **"Moliya bozorlari va institutlari"**, **"Xalqaro moliya"**, **"Mikroiqtisodiyot"**, **"Buxgalteriya hisobi"** fanlaridan o'tkaziladigan yakuniy attestatsiya sinovining asosiy test

**SAVOLLARI**

Ushbu fan talabalarga davlat budjeti tizimi, amalga oshirish shakllari, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillar, budjet siyosati, fiskal siyosati, budjet siyosatini iqtisodiyotni biznes va ijtimoiy sohadagi o'rni va ahamiyati, konsolidatsiyalashgan budjet, moliyaviy texnologiyalar, davlat budjeti to'g'risidagi qonun, monetar siyosat, davlat xaridlari, davlat budjeti defitsiti hamda profitsiti, davlat budjetini shakllantirish, davlat budjeti xarajatlariga oid bo'lgan bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

**1.Byudjet siyosati fanidan YAS uchun savollar bazasi**

1. Davlat budjetiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping?
2. Budjet jarayoni ishtirokchilari kimlar?
3. Budjet tizimi prinsiplari nechtani tashkil etadi?
4. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari deganda nimani tushunasiz?
5. Budjet kodeksi tarkibiy tuzilishi qanday?
6. Budjet kodeksi qachon va qaysi qonun bilan tasqidlangan?
7. Budjet ssudasi nima?

8. Budjet mablag'larini taqsimlovchilar deganda nimani tushunasiz?
9. Joriy moliya yilining muayyan davrida budjet tizimi budjetlarining xarajatlari daromadlaridan vaqtinchalik oshib ketishi nima deyiladi?
10. Davlat budjetini va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini, shuningdek budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirok etishi mumkinligi qaysi budjet prinsipida bayon etilgan?
11. Budjet tasnifining asosiy prinsiplari qaysilar?
12. "O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iboratdir" O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasi?
13. .................. - Budjet tizimi budjetlariga ularning o'z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari?
14. .................. - Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat?
15. O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan qonun bilan belgilangan miqdorda ajratiladigan budjet mablag'larini taqsimlovchi yuridik shaxs kim?
16. Fiskal siyosat nima?
17. Monetar siyosat nima?
18. Tashkilotning yillik yoki o'rtacha moliyaviy maqsadlari va vazifalarini aniqlashga yordam beradi. Bu maqsadlar, tashkilotning moliyalashtirilgan resurslarni qanday ishlatishi, o'zlashtirishi va takomillashtirishi kerakligini ko'rsatadi. Bu budjet siyosatining qanday zarurati hisoblanadi?
19. Budjet siyosati, moliyalashtirishni tashkil etadi va bir tashkilot yoki hokimiyatning resurslarini boshqarishning usullarini aniqlash uchun zarurdir?
20. Bu budjet siyosatining qanday zarurati hisoblanadi?
21. Budjet siyosati, to'lovlar tizimini aniqlash va to'lovlar yoki investitsiyalarni qanday tashkil etishga oid qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bu budjet siyosatining qanday zarurati hisoblanadi?
22. Budjet siyosati, tashkilotning moliyaviy natijalarini hisob-kitob qilish va nazorat qilish uchun kerak bo'lgan tizimlarni tashkil etishga yordam beradi. Bu budjet siyosatining qanday zarurati hisoblanadi?
23. .......................... - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar?
24. .................. - O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlaridan budjet tashkilotlari hamda budjet mablag'lari oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag'lari?



25. Davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar DAVLAT BUDJETI daromadlari shakllanishida ishtirok etadimi?
26. Davlat budjeti daromadlari shakllanishi budjet kodeksining qaysi moddasida o'z aksini topgan?
27. Qo'shilgan qiymat solig'i qaysi budjet daromadlarida shakllanadi?
28. Mol-mulk solig'i hamda yer solig'i qaysi pog'onadagi budjet daromadlari shakllanishida ishtirok etadi?
29. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi budjet kodeksining qaysi moddasida o'z aksini topgan?
30. Budjet xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra qanday xarajatlarga bo'linadi?
31. Yig'imga ta'rif bering?
32. Davlat xaridlari deganda nimani tushunasiz?
33. 32.Moliya yili deganda nimani tushunasiz?
34. Shaxsning zimmasiga sud tartibida yuklatilgan jarimalar va boshqa to'lovlar soliqlar va yig'imlar jumlasiga kiradimi?
35. 2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risidagi O'RQ-886 sonli qonuni qachon qabul qilindi?
36. Fiskal tavakkalchiliklar deganda nimani tushunasiz?
37. Subvensiya nima?
38. Budjet so'rovi deganda nimani tushunasiz?
39. Davlat budjeti defitsiti nima?
40. Davlat budjeti profitsiti nima?
41. Davlat budjeti taqchilligi nima?
42. Budjet defitsiti milliy iqtisodiyot uchun xavf tug'dirmaydi. Ushbu jumla qaysi maktab vakillariga tegishli?
43. Hozirgi kun (davr)da mavjud bo'lgan budjet defitsiti, pirovardida, (yaqin) kelajakda yuqori darajadagi soliqlarning bo'lishini taqozo etadi. Ushbu jumla qaysi maktab vakillariga tegishli?
44. Dotatsiyaga ta'rif bering?
45. Soliqlarning qaysi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi?
46. Subvensiya nima?
47. Subsidiya nima?
48. Budjetnomaga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping?
49. Budjetnomadagi yo'nalishlarga asosan qaysi huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi?
50. 2024 yil uchun O'RQ-886 sonli davlat budjeti to'g'risidagi qonun nechta moddadan iborat?

51. 2024 yil uchun O'RQ-886 sonli davlat budjeti to'g'risidagi qonunning 10-ilovasi nima aks etga?
52. 2024 yil uchun O'RQ-886 sonli davlat budjeti to'g'risidagi qonunga ko'ra mikroavtobuslar,avtobuslar va yuk avtomobillari uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi qancha etib belgilandi?
53. 2024 yil uchun O'RQ-886 sonli davlat budjeti to'g'risidagi qonunga ko'ra turar joylar uchun(Toshkent shahar) ijara to'lovining eng kam stavkasi qancha etib belgilandi 1 metr kvadrat joy uchun?
54. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi davlat budjetida eng ko'p soliq tushumini ta'minlagan yuridik shaxs nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
55. 2024 yil uchun O'RQ-886 sonli davlat budjeti to'g'risidagi qonunga ko'ra noturar joylar uchun(Toshkent shahar) ijara to'lovining eng kam stavkasi qancha etib belgilandi 1 metr kvadrat joy uchun?
56. 2023 yilda davlat budjeti xarajatlarining deyarli yarmi qaysi sohaga yo'naltirildi?
57. Budjet tizimi budjetlari deganda nimani tushunasiz?
58. Budjet yili ga ta'rif bering?
59. Byudjet tashkilotiga ta'rif bering?
60. Davlat qarziga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?
61. Aylanma kassa mablag'i nima?
62. Davlat moliyaviy nazorati prinsiplari toping?
63. Davlat moliyaviy nazorat organlari qaysilar?
64. Budjet sohasidagi vakolatlar nima degani?
65. Davlat moliyaviy nazorati shakllarini toping?
66. Davlat moliyaviy nazorati turlari toping?
67. Davlat moliyaviy nazoratining hujjatlar tekshirish hajmiga ko'ra turlari qaysilar?
68. O'zbekiston Respublikasining Konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kiritiladigan davlat maqsadli jamg'armalarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi qaror qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
69. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kiradigan davlat maqsadli jamg'armalarining soni to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
70. Konsolidatsiyalashgan budjet degani nima ma'noni anglatadi?
71. Davlat moliyaviy nazoratning maqsadga yo'naltirilganligi va predmetiga qarab turlari qaysilari?
72. Davlat qarzi nima?
73. Davlat budjetiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping?
74. Budjet so'zining ma'nosi nima?



75. Budjet tizimi prinsiplari nechtani tashkil etadi?
76. Budjet kodeksi tarkibiy tuzilishi qanday?
77. Budjet kodeksi qachon va qaysi qonun bilan tasqidlangan?
78. Budjet ssudasi nima?
79. Davlat budjeti funksiyalari qaysilar?
80. Budjet so'zi qadimiy qaysi tildan olingan?
81. Davlat budjetini va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini, shuningdek budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirok etishi mumkinligi qaysi budjet prinsipida bayon etilgan?
82. Budjet tasnifining asosiy prinsiplari qaysilar?
83. "O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iboratdir" O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasi?
84. ……………… - Budjet tizimi budjetlariga ularning o'z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari?
85. ……………… - Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat?
86. O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan qonun bilan belgilangan miqdorda ajratiladigan budjet mablag'larini taqsimlovchi yuridik shaxs kim?
87. Fiskal siyosat nima?
88. Monetar siyosat nima?
89. Tashkilotning yillik yoki o'rtacha moliyaviy maqsadlari va vazifalarini aniqlashga yordam beradi. Bu maqsadlar, tashkilotning moliyalashtirilgan resurslarni qanday ishlatishi, o'zlashtirishi va takomillashtirishi kerakligini ko'rsatadi. Bu budjet siyosatining qanday zarurati hisoblanadi?
90. Budjet siyosati, moliyalashtirishni tashkil etadi va bir tashkilot yoki hokimiyatning resurslarini boshqarishning usullarini aniqlash uchun zarurdir. Bu budjet siyosatining qanday zarurati hisoblanadi?
91. Budjet siyosati, to'lovlar tizimini aniqlash va to'lovlar yoki investitsiyalarni qanday tashkil etishga oid qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bu budjet siyosatining qanday zarurati hisoblanadi?
92. Budjet siyosati, tashkilotning moliyaviy natijalarini hisob-kitob qilish va nazorat qilish uchun kerak bo'lgan tizimlarni tashkil etishga yordam beradi. Bu budjet siyosatining qanday zarurati hisoblanadi?
93. ……………………… - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar?

94. .................. - O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlaridan budjet tashkilotlari hamda budjet mablag'lari oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag'lari?

95. Davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar DAVLAT BUDJETI daromadlari shakllanishida ishtirok etadimi?

96. Davlat budjetiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping?

97. Budjet jarayoni ishtirokchilari kimlar?

98. Budjet tizimi prinsiplari nechtani tashkil etadi?

99. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari deganda nimani tushunasiz?

100. Budjet kodeksi tarkibiy tuzilishi qanday?

Ushbu fan talabalarga Moliyaviy bozorlar va institutlar fanining mohiyatini tushinish va moliyaviy xizmatlar, mamlakatlarning moliyaviy siyosati va boshqaruv usullari haqida bilimlariga ega bo'lish.

- Moliyaviy bozorlar va institutlarining globallashuvi;
- Foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi omillar;
- Birlamchi va ikkilamchi aksiya bozorlari;
- Valyuta bozorlari bilan bog'liq xavf-xatarlar;
- Qarz qimmatli qog'ozlar turlari.

**2. Moliya bozorlari va institutlari fanidan YAS uchun savollar bazasi**

1. Moliya bozoriga eng to'g'ri ta'rifni toping?
2. Moliyaviy aktiv nima ?
3. Qimmatli qog'ozlarga berilgan aniq javobni belgilang?
4. Qimmatli qog'ozlar diversifikatsiyasi bu?
5. Aksiya kotirovkasi nima?
6. Aksiyaga berilgan aniq javobni belgilang ?
7. Dividend uchun eng to'g'ri javobni belgilang ?
8. Aksiyadorlik jamiyatining nechta turi mavjud ?
9. Aksiyaning nechta turi mavjud ?
10. Obligatsiya – bu ?
11. Xazina majburiyatlari – bu ?
12. Birja indekslariga to'liq javobni belgilang ?



13. Oddiy aksiya uchun berilgan aniq javobni belgilang ?
14. Imtiyozli aksiya uchun berilgan tog'ri javobni toping ?
15. Moliya bozorining maqsadini belgilang ?
16. Qaysilar moliya institutlari bo'la olmaydi ?
17. Investitsion banklar haqida berilgan eng to'g'ri ta'rifni toping ?
18. Sug'urta kompaniyalari moliya bozoriga nima uchun kerak ?
19. Foiz stavkasiga berilgan eng oqilona ta'rifni belgilang ?
20. Asosiy stavkani kim belgilaydi ?
21. Foiz stavkalari nimaga qarab o'zgarmaydi ?
22. Moliya bozorida inflyatsiyaning ta'siri qanday natija beradi ?
23. Qarz berish riskini tashkil etuvchi omilni toping ?
24. Moliya bozori samaradorligi berilgan to'g'ri ta'rifni belgilang ?
25. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyat yuritish mumkin bo'lmagan faoliyat turini aniqlang ?
26. IPO ga berilgan to'g'ri ta'rifni belgilang ?
27. Moliya bozorida ishtirok etmaydigan institutlarni belgilang . Moliya bozorlari glaballashuvi nima ?
28. Xalqaro moliya institutlari qanday vazifalarni bajarmaydi ?
29. Valyuta intervensiyasi nima ?
30. Bitkoinga berilgan ta'rifni belgilang ?
31. Moliyaviy inqirozlar qimmatli qog'ozlar bozoriga qanday ta'sir ko'satadi ?
32. Monetar siyosatni amalga oshiruvchi tashkilotni belgilang ?
33. Monetar siyosatga eng aniq ta'rifi qanday ?
34. O'zbekistonda asosiy stavka necha foiz etib belgilangan ?
35. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqarmalari nechtani tashkil etadi ?
36. Qaysi varianda pul vazifasi noto'g'ri ko'rsatilgan ?
37. Qanday holatda pul jamg'arma vositasini bajaradi ?
38. Qaysilari moliya bozorlari funksiyalariga kirmaydi ?
39. Kreditni vujudga kelishining sababini belgilang ?
40. Birlamchi bozor nima ?
41. Islom moliyasida nimaga yo'l qo'yilmaydi ?
42. Pul bozorining mohiyati nimada ?
43. FOREX bozori nima ?
44. Kripto so'zining ma'nosi nima ?
45. PPP nazariyasi mazmuni ?
46. Tijorat qog'ozlari nima ?
47. Pul – bu?
48. Bank so'zining lug'aviy manosi nima?

49. Zamonaviy banklarga o'xshash banklar dastlab qayerda paydo bo'lgan?
50. Zamonaviy banklar ko'rsatadigan xizmatlar asosan nechta turga bo'linadi ?
51. Bir shaxsning bo'sh pul mablag'larini ikkinchi bir, ehtiyoji bo'lgan shaxsga o'tishida "o'rtakashlik" vasifasini bajarish … deb ataladi?
52. Tijorat banklarning depozitariy xizmatlari nima?
53. Korxonalar IPO (Initial Public Offering) bo'lib bozorga chiqishida qaysi banklar vositachi vazifasini o'tab beradi?
54. Davlat banki bo'lishligi uchun bankdagi davlat ulushi …% bo'lishligi kerak?
55. Tijorat banklari va boshqa kredit beruvchi tashkilotlar o'rtasidagi farq nimada.?
56. O'zbekistonda, tijorat banklariga ta'qiqlangan faoliyatlar qaysilar ?
57. Tijorat banklari nimaga asosan bank faoliyatini ko'rsatadi?
58. Quyidagilardan qaysi bir aksiyaga egalik qilishdagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi ?
59. Emissiya bu ?
60. Emitent bu ?
61. Fond birjasi bu?
62. Qimmatli qog'ozlarni chiqarishi mumkin bo'lgan yuridik shaxslar. Moliya bozori yordamida jamg'armalarning pul mablag'lari ishlab chiqarishni rivojlantirish, davlat va hududiy maqsadli dasturlarni amalga oshirish xarajatlari va boshqa ehtiyojlarni investitsiyalash uchun jalb etiladi?
63. Nima haqida gap ketmoqda?
64. Fyuchersga eng to'g'ri keladigan javobni toping ?
65. Obligatsiya bu ?
66. Korporativ obligatsiyalar bu ?
67. Moliyaviy institutlari nima degani ?
68. Qaysi variantda moliyaviy bozorlarga hos ma'lumot berilgan ?
69. Quyidagilar qaysi biri obligatsiyalar tarifiga mos keladi ?
70. Diversifikatsiya bu ?
71. Depozitar faoliyatga to'g'ri kelmaydigan variantni belgilang ?
72. Qimmatli qog'ozlar yoki valyuta bozorining ma'lum bir davrdagi o'zgaruvchanlik darajasini ko'rsatadigan ko'rsatkichi bu ?
73. Moliyaviy vositalar bo'lgan shartnomalar tuzish to'g'risidagi topshirig'ini bajarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi bu ?
74. Qimmatli qog'ozlar bozorining tovar va moliya bozorlarida tashkiliy savdolarni amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi professional ishtirokchisi ?
75. SPO nima ?



76. Ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtda va belgilangan joyda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs ?
77. Bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz nima ?
78. Qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs ?
79. Munitsipal obligatsiyalar bu ?
80. O'zbekistonda g'azna majburiyatlarining nechta turi mavjud?
81. O'zbekistonda g'azna majburiyatlarining qanday turlari mavjud?
82. Emitentning xususiyatiga ko'ra obligatsiyalar nechta katta guruhga bo'linadi? Uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan (qat'iy) foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz bu ?
83. Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar qancha muddatga chiqarilishi mumkin?
84. O'rta muddatli qimmatli qog'ozlar qancha muddatga chiqarilishi mumkin?
85. Qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar qancha muddatga chiqarilishi mumkin?
86. Emitentning xususiyatiga ko'ra obligatsiyalar qanday katta guruhlarga bo'linadi?
87. Aksiyalarning asosiy sifatlari to'g'ri keltirilgan qatorni belgilang?
88. "U uni chiqargan aksiyadorlik jamiyati amal qilib turgan yil mobaynida muomalada bo'lishi mumkin" ushbu ta'rif qaysi qimmatli qog'oz turiga tegishli?
89. "Uning egasi akisiyadorlik jamiyati tugatilgan hollarda uning mol-mulkini taqsimlashda ishtirok etish xuquqiga ega" ushbu ta'rif qaysi qimmatli qog'oz turiga tegishli?
90. "Odatda, aksiyadorlik jamiyatining foydasiga bog'liq bo'ladi hamda hisobot yili natijalariga ko'ra to'lanadi" ushbu ta'rif qaysi atamaga tegishli?
91. Aksiyaning bozorda sotiladigan narxi nima deb ataladi?
92. Investor bu ?
93. Emitent bu?
94. Qimmatli qog'ozlar bozori bu ?
95. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar bu ?
96. Qimmatli qog'ozlar o'ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs bu ?
97. Xalqaro fond birjalari haqida ma'lumot bering.

98. Investor atamasiga ta'rif bering.

99. Jahon banki haqida ma'lumot bering.

100. Quyidagilardan qaysi bir aksiyaga egalik qilishdagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi ?

Talabalarga soliq siyosati mazmuni, soliq strategiyasi, soliq konsepsiyasi hamda qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, foyda solig'i, ijtimoiy soliq, yuridik va jismoniy shaxslar uchun mol-mulk va yer soliqlari, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yer q'ridan foydalanganlik uchun soliq, suv soliqlarini hisoblash va soliq turlariga oid qonun hujjatlari bo'yicha yo'nalishga mos bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

### 3. Xalqaro moliya fanidan YAS uchun savollar bazasi.

1. Xalqaro moliya qanday tushuncha?
2. Xalqaro moliya munosabatlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy omillari qaysi qatorda tog'ri ko'rsatilgan?
3. Xalqaro moliya tizimi elementlariga qaysilar kiradi?
4. Transmilliy korporatsiya (TMK) — bu…
5. TMK qaysi omillar hisobiga paydo bo'ladi.?
6. Qaysi davrdan beri xalqaro kreditni to'lov balansining taqchilligini bevosita yoki bilvosita moliyalashtirish uchun foydalana boshlandi?
7. Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlariga davlat va jismoniy shahslar kiradimi?
8. Hududiy integratsiyalashuv …
9. Globallashuv jarayonining asosiy jihatlari?
10. Globallashuv keng rivojlanayotgan asosiy sohalar?
11. Globalashuv jarayoni quyidagi holatlardan qaysi birini o'z ichiga olmaydi?
12. Zamonaviy transmilliy korporatsiyalar asosan qaysi sohada faoliyat ko'rsatmoqda?
13. Hozirgi paytda yangi texnologiyalarning necha foizi TMKlar tomonidan yaratilmoqda?
14. Kuznets sikli davomiyligi qancha?
15. Kondratev sikli davomiyligi qancha?
16. Kitchin sikli …
17. Juglar sikli …
18. Kuznets sikli …
19. Kondratev sikli ...



20. Iqtisodiy siklning asosiy fazalari ko'tarilish, inqiroz, depressiya va jonlanishdan i yildan buyon bolalar o'limi necha hissaga kamaydi?
21. Talab (X) va Taklif (Y) omillari nisbatida X">"Y holat bo'lsa, iqtisodiy siklning qanday holati yuzaga keladi?
22. 2007-2008 yillar Jahon moliyaviy inqirozining boshlangich sabablari qanday jarayon bilan bog'liq?
23. Agar to'lov balansida valutaviy tushumlar to'lovlardan ortib ketsa, to'lov balansi qanday holatda hisoblanadi?
24. Agar to'lov balansida valutaviy tushumlar to'lovlardan kam bo'lsa, to'lov balansi qanday holatda hisoblanadi?
25. To'lov balansi tushunchasi kim tomonidan qachon birinchi marta foydalanilgan?
26. To'lov balansini taqdim etishning ko'rinishlari?
27. Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlariga qaysi biri kirmaydi?
28. Globallashuv jarayonini rivojlantiruvchi asosiy omillar?
29. To'lov balansi qoldig'i moliyaviy davr yakunida qanday qilib nolga tenglashtiriladi?
30. Xalqaro valyuta jamg'armasidan olinadigan kvota 2016 yil yanvarida respublikamiz uchun qanchaga yetkazildi?
31. Mark Kuban so'zlariga ko'ra dunyodagi birinchi trillionerlar qanday moliyaviy dastaklar bilan ishlaydigan kishilar bo'ladi?
32. Amerika deposit tilxati yoki depozitariy kvitansiyasi kimlarga sotiladi?
33. Jahondagi deposit tilxatlarining asosiy tarmoqlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
34. Har chorakda yoki yillik hisobotlarni taqdim etishlari shart bo'lmagan Amerika deposit tilxatlari darajasi qaysi qatorda ko'rsatilgan?
35. Amerika deposit tilxatlari darajasi SEC ko'rsatmalariga eng qat'iy rioya qilishni talab qiladi?
36. Xalqaro moliya bozorini tartibga solish mexanizmlari shakllanish bosqichlari nechta?
37. Xalqaro moliya bozori o'zini-o'zi tartibga solish rejimida faoliyat yuritgan davrni ko'rsating?
38. Xalqaro kapital oqimi bu….
39. Xalqaro kapital oqimlarining iqtisodiyotga ta'siri samarali bo'lishi uchun qanday chora tadbirlar qo'llash lozim?
40. Xalqaro moliya bozori qat'iy tashqi bevosita tartibga solish rejimida amal qilgan davrni ko'rsating?
41. Juglar sikli davomiyligi qancha?
42. To'lov balansi nima?
43. Milliy iqtisodiyotning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokining bir necha miqdoriy ko'rsatkich(lar)ini ko'rsating?
44. Xalqaro valyuta jamg'armasi qachon tashkil topgan?

45.Jahon banki guruhiga nechta tashkilot kiradi?

46.… Bretton-Vud konferensiyasi qaroriga asosan 1944 yilda tashkil etilgan?

47.Qaysi tashkilot dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarga foizsiz kreditlar va grantlar taqdim etadi?

48.Xalqaro rivojlanish assosiasiyasi beradigan kreditlarning imtiyozli muddati necha yilgacha bo'lishi mumkin?

49.Investisiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tarmoqli agentlik (IKKA) qachon tashkil topgan?

50.Jahon banki guruhida investitsiyalar bilan bog'liq nechta tashkilot bor?

51.Globallashuv jarayonining asosini qaysi jarayonlar tashkil etadi?

52.Globallashuv jarayonining salbiy oqibatlariga qaysi qatorda to'g'ri misol berilgan?

53.Moliyaviy inqiroz nima?

54.Iqtisodiy sikl nima?

55.Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy sikllarning nechta turi tarqalgan?

56.Kitchin sikli davomiyligi qancha?

57.Talab (X) va Taklif (Y) omillari nisbatida X">"Y holat bo'lsa, iqtisodiy siklning qanday holati yuzaga keladi?

58.Ishlab chiqarish omillari - Mahsulot (Y) va Xarajatlar (S) nisbatida Y">"S holat bo'lsa, iqtisodiy siklning qanday holati yuzaga keladi?

59.Ishlab chiqarish omillari - Mahsulot (Y) va Xarajatlar (S) nisbatida Y=S holat bo'lsa, iqtisodiy siklning qanday holati yuzaga keladi?

60.Barcha to'lovlar summasi (MV) va barcha tovarlar baholari summasi (PQ) nisbatida "MV">"PQ" holat bo'lsa, iqtisodiy siklning qanday holati yuzaga keladi?

61.Barcha to'lovlar summasi (MV) va barcha tovarlar baholari summasi (PQ) nisbatida MV=PQ holat bo'lsa, iqtisodiy siklning qanday holati yuzaga keladi?

62.Investitsiyalar (I) va Jamg'arma (S) nisbatida I">"S holat bo'lsa, iqtisodiy siklning qanday holati yuzaga keladi?

63.Investitsiyalar (I) va Jamg'arma (S) nisbatida I=S holat bo'lsa, iqtisodiy siklning qanday holati yuzaga keladi?

64.Xalqaro moliya sohasida moliyaviy inqirozning yuz berishi oqibatlari qanday?

65.Hosila moliyaviy vositalarning boshqa nomi nima?

66.Xalqaro ssuda kapitali qanday shartlarga asoslanadi?

67.Xalqaro moliya institutlari qanday huquqqa asosan tartibga solinadi?

68.Eng ko'zga ko'ringan xalqaro moliya institutlari…

69.Eng ko'zga ko'ringan xalqaro moliya institutlari dastlab qanday maqsadda tashkil etilgan?

70.O'zbekiston Respublikasi qachon Xalqaro valyuta jamg'armasining a'zoligiga qabul qilingan?

71.Xalqaro valyuta jamg'armasining O'zbekitondagi vakolatxonasi qachon ish boshlagan?



72.Xalqaro valyuta jamg'armasining bosh qarorgohi (shtab-kvartirasi) qayerda joylashgan?

73.SDR (ing. Special Drawing Rights, SDR), maxsus qarz olish huquqlari nimani anglatadi?

74.Ko'lam jihatidan xalqaro va mintaqaviy moliya institutlari o'rtasida farq qanday?

75.Xalqaro moliya bozorining tarkibiy tuzilishi shakllanish bosqichlari nechta?

76.Tashqi savdoning rivojlanishi, xalqaro oltin-valyuta bozorining paydo bo'lishi xalqaro moliya bozorining tarkibiy tuzilishi shakllanish bosqichlari qaysi biriga tegishli?

77.Xalqaro derivativlar bozorining shakllanishi xalqaro moliya bozorining tarkibiy tuzilishi shakllanish bosqichlari qaysi biriga tegishli?

78.Xalqaro moliyaviy aktivlar o'zida qanday xususiyatlarni jamlaydi?

79.… ma'lum bir moliyaviy vosita yoki ko'rsatkich yoki tovar bilan bog'langan moliyaviy vositalar bo'lib, ular orqali o'ziga xos moliyaviy risklarni moliya bozorlarida sotish mumkin.

80.Bu qaysi moliyaviy tushunchaga hos ta'rif?

81.To'g'ridan-to'gri investitsiyalar bu …

82.Xalqaro moliya bozorini o'z-o'zini tartibga solishning asosiy maqsad(lar)i qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

83.AQShning Prinston universiteti tadqiqotchilari K.Raynxart va K. Rogofflarning baholashiga ko'ra, 1945-2008 yillar davomida dunyoda necha marotaba yirik bank inqirozlari sodir bo'lgan?

84.Buyuk depressiya qaysi davr oralig'ida sodir bo'lgan?

85.Ipak yo'li Sharq va G'arbni bog'lagan birinchi yirik savdo yo'li sifatida Xitoydan qaysi davlatgacha borgan?

86.Buyuk depressiya davrida AQSh va Kanadada ishsizlik darajasi necha foizgacha etti?

87.Globallashuv jarayoni uchun hos bo'lgan jarayonlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

88.Xalqaro moliya o'zida obyektiv asos sifatida qanday omil muhim rol o'ynaydi?

89.Xalqaro moliyaning moddiy asosi qanday?

90.Mamlakat davlat moliyasining xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

91.Quyidagilardan qaysi biri xalqaro moliyaning asosiy funksiyalariga kirmaydi?

92. Xalqaro moliya qanday tushuncha?

93. Xalqaro moliya munosabatlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy omillari qaysi qatorda tog'ri ko'rsatilgan?

94. Xalqaro moliya tizimi elementlariga qaysilar kiradi?

95. Transmilliy korporatsiya (TMK) — bu…

96. TMK qaysi omillar hisobiga paydo bo'ladi.?

97. Qaysi davrdan beri xalqaro kreditni to'lov balansining taqchilligini bevosita yoki bilvosita moliyalashtirish uchun foydalana boshlandi?

98. Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlariga davlat va jismoniy shahslar kiradimi?
99. Hududiy integratsiyalashuv ...
100. Globallashuv jarayonining asosiy jihatlari?

Talabalarga iqtisodiyotning individual agentlari, masalan, uy xo'jaliklari, kompaniyalar va bozorlardagi iqtisodiy qarorlarni o'rganadigan iqtisodiy nazariyadir. Mikroiqtisodiyot fanni o'qitishning maqsadlari, asosan, talabalarga iqtisodiy jarayonlar, qaror qabul qilish mexanizmlari va resurslarni samarali taqsimlashni tushuntirishga qaratilgan xamda ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

### 4. Mikroiqtisodiyot fanidan YAS uchun savollar bazasi

1. Mikroiqtisodiyot nimani o'rganadi?
2. Mikroiqtisodiyot fani quyidagilardan qaysi biri bilan shug'ullanadi?
3. Qaysi iqtisodiy subyekt mikroiqtisodiyot fanida o'rganiladi?
4. Quyidagilardan qaysi biri mikroiqtisodiyot fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi?
5. Mikroiqtisodiyot fanida qaysi omil tovar narxlariga ta'sir ko'rsatadi?
6. Mikroiqtisodiyot fanining o'rganish uslublaridan qaysi biri korxonalar o'rtasidagi raqobatni tahlil qilishda ishlatiladi?
7. Mikroiqtisodiyot fanida "muvozanat modeli" nima bilan bog'liq?
8. Bozorning iqtisodiy mohiyati nima?
9. Quyidagilardan qaysi biri bozorning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi?
10. Tranzaksion xarajatlar deganda nimani tushunasiz?
11. Bozordagi narx qanday shakllanadi?
12. Noyob ne'matlar nima?
13. Qaysi ne'matlar takror ishlab chiqarilmaydigan resurslarga kiradi?
14. Bozor tizimida noyob ne'matlarni qanday tamoyillar asosida taqsimlash amalga oshiriladi?
15. Iqtisodiy ehtiyoj nima?
16. O'zaro bir-birini to'ldiruvchi ne'matlarga misol bo'la oladi:
17. Alternativ xarajatlar nimani anglatadi?
18. Quyidagilardan qaysi biri tadbirkorlik qobiliyati sifatida qaraladi?
19. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegaralari nimani ko'rsatadi?
20. Noreal ehtiyoj qanday ehtiyojga misol bo'la oladi?
21. Iste'molchilarning asosiy maqsadi nimadan iborat?
22. Tovarlar aylanmasi modelida uy xo'jaliklari nima qiladi?
23. Tovarlar aylanmasi modelidagi ikki asosiy o'zgaruvchilar qanday ataladi
24. Bozorda talab va taklif o'zaro qanday bog'liq?



25. Tovarlar bozorida muvofiqlashtirish masalasini hal qiluvchi asosiy vosita nima?
26. Tranzaksion xarajatlar nimani anglatadi?
27. Narxning oshishi iste'molchilarga qanday signal beradi?
28. Talab deganda nimani tushunasiz?
29. Taklif chizig'i nimani ko'rsatadi?
30. Talab chizig'i qanday yo'nalishda harakatlanadi?
31. Bozorda muvozanat nuqtasi qanday aniqlanadi?
32. Qaysi bir holatda taklif oshishi kutiladi?
33. Talab va taklif grafigida absissa o'qi nimani ifodalaydi?
34. Narx oshganda talab va taklif qanday o'zgaradi?
35. Xom ashyo narxining pasayishi bozordagi taklifga qanday ta'sir qiladi?
36. Quyidagilardan qaysi biri taklifga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi?
37. Iste'molchilarning daromadi oshishi talabga qanday ta'sir qiladi?
38. Bir-birini to'ldiruvchi tovarlarning narxi oshganda talab qanday o'zgaradi?
39. Quyidagilardan qaysi biri bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlarga misol bo'la oladi?
40. Talab chizig'i qachon o'ngga siljiydi?
41. Taklif va talabning bir vaqtning o'zida o'ngga siljishi bozorda qanday natija beradi?
42. Raqobatga ko'ra bozor turlari qanday bo'ladi?
43. Mukammal raqobatli bozorda qanday turdagi raqobat bo'ladi?
44. Mahsulotga talab elastikligi eng yuqori bozor turi?
45. P=MC. Bu holat qaysi bozor turiga hos?
46. Mahsulotga talab elastikligi eng past bozor turi?
47. Umumiy daromad formulasini ko'rsating?
48. O'rtacha daromad formulasini ko'rsating?
49. Foydani maksimallashtirish shartini toping?
50. Mehnatga talab ish haqiga qanday bo'g'langan?
51. Mehnat taklifi ish haqiga qanday bo'g'langan?
52. Mehnatning chekli daromadliligi formulasini toping?
53. Firma ishchilarni qaysi holatgacha yollashi mumkin?
54. Mehnat bozoridagi monopsoniyada nechta ish beruvchi bo'ladi?
55. Minimal ish haqi kim tomonidan o'rnatiladi?
56. Yuqori malakali ishchiga to'lanadigan ortiqcha ish haqi nima deyiladi?
57. Kapitalning ma'naviy eskirishi nima?
58. Iste'molchilar o'rtasidagi raqobat qanday maqsadga qaratiladi?
59. Sotuvchilar o'rtasidagi raqobat qanday maqsadga qaratiladi?
60. Qanday monopoliya huquqiy cheklov va ta'qiqlar bilan himoyalangan bo'ladi?
61. Qanday monopoliya alohida himoyalanmagan bo'ladi?
62. Haridorning monopoliyasi nima deyiladi?

63. Mukammal raqobatli bozorda qaysi shart bajariladi?
64. Sof raqobatli bozorga qaysi misol mos keladi?
65. Monopolistik raqobatli bozorga qaysi misol mos keladi?
66. Narxlar diskriminatsiyasida...
67. Narx diskriminatsiyasining nechta darajasi bor?
68. Qaysi darajadagi narx diskriminatsiyasida ayrim tovarlarning sotib olish hajmi qisqaradi?
69. Qaysi darajadagi narx diskriminatsiyasida haridorlar guruhlarga bo'linadi?
70. ...da iste'molchilardan tovarni sotib olish huquqi uchun to'lov undiriladi?
71. Ikki qismli tarifning qaysi turida iste'molchi yutug'I to'liq foyda shaklida o'zlashtiriladi?
72. 2T*+(P*-MC)(Q1+Q2) Bu formula ikki qismli tarifning qaysi shaklida foydani hisoblaydi?
73. Kirish to'lovi(T)ning oshishi tashrif buyuruvchilar soniga qandat ta'sir qiladi?
74. Oligapoliya narxlar janggida qaysi shartgacha davom etadi?
75. Kurno muvozanati nechta ishlab chigaruvchi o'rtasida optimal echimni ko'rsatadi?
76. Oligopolistik bozorda talab chizig'ining sinishi qaysi siyosat bilan bog'liq?
77. Avval yetakchi firma keyin izdosh firmalar ketmaket harakatlanadigan model qaysi?
78. P=MC shartida firmaning foydasi qancha bo'ladi?
79. Oligapolistik narx raqobatidaP1>Pe bo'lganida P1 narx egasi bo'lgan firma qancha mahsulot sotadi?
80. Xufiyona kelishuv modelida firmalar ...
81. Ikki firmaning duopol bozordagi kelishuvi nimani yuzaga keltiradi?
82. Extimollikning qanday turlari bor (F.Nayt)?
83. Tanganing bir tomoni tushishi extimoli ½ ekanligi qanday extimollik?
84. Biznesga hos bo;lgan nisbatan ko'p uchraydigan extimollik qaysi?
85. Haqiqiy natija va kutilayotgan natija o'rtasidagi farq nima?
86. Tavakkalchilikka ko'ra nechta turli insonlar bo'ladi?
87. Iste'moldagi tavakkalchilikning qaysi turida chekli naflilik (MU) deyarli o'zgarmaydi?
88. Tavakkalchilikning pasayishi bilan bog'liq bo'lgan kelajakda bo'ladigan shartnomalar tuzish turi qaysi?
89. Bozor sub'eklari orasida muhim axborotga ega bo'lgan va bu axborot bo'lmaganlarning mavjudligi qanday holat deyiladi?
90. Bozordagi oldi sottidan olinadigan, lekin narxda ko'rinmagan harajat yoki foyda nima?
91. Tashqi samara nechta turga bo'linadi?
92. Manfiy tashqi samara formulasi?
93. Manfiy tashqi samara formulasi?



94. Tashqi ta'sirlarni yumshatish bo'yicha A.S.Piga nimadan foydalanishni taklif qilgan?
95. Mukammal raqobatli bozorda hususiy va ijtimoiy harajatlar bir-biriga tengligini kim aytgan?
96. Kouz teoremasi tomonlar soni nechta bo'lganida o'rinli bo'ladi?
97. Sof ijtimoiy ne'matning necha xil hususiyati bor?
98. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra qanday harajatlar bor?
99. Resursni jalb etish manbasiga ko'ra qanday harajatlar bor?
100. Noishlab chiqarish harajati qaysi qatorda?

Talabalarga boshqaruv hisobi asoslari, amalga oshirish shakllari, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillar, boshqaruv hisobini iqtisodiyotni biznes va ijtimoiy sohadagi o'rni va ahamiyati bo'yicha yo'nalishga mos bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

**5. Buxgalteriya hisobi fanidan YAS uchun savollar bazasi.**

1. Yoqilg'i aktivlarning qaysi turiga mansub ?
2. Litsenziya haqida ma'lumot bering?
3. Bankdagi valyuta hisob raqamidagi pul mablag'lari nima?
4. Xodimlarning korxonaga bo'lgan qarzi nima?
5. Xali qurib bitkazilmagan bino?
6. Oldindan olingan avanslar?
7. Ustav kapitali ko'payishi qaysi tomonda aks ettiriladi?
8. Budjetga soliqlar bo'yicha qarzdorlik to'landi. Provodkani bering?
9. Qarz bu ?
10. Hisobot davrining oxiridi tranzit schyotlar qoldiqlari qaysi tomonda qoladi?
11. Quyidagilarni qaysi biri to'g'ri?
12. Buxgalteriyada buxgalter eng birinchi ishni nimadan boshlaydi?
13. Birlamchi hujjatlar nima va ularning turlari? Eng to'g'ri javobni tanlang?
14. Birlamchi xujjatlar qanday shaklda tuzilishi lozim?
15. Tovar moddiy zaxiralar (TMZ) tarkibi?
16. TMZ lar qanday qiymatda balansga kirim kilinadi?
17. FIFO, AVECO bu?
18. ... korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida

yohud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar?

19. Asosiy vositalarga eskirish hisoblashning necha xil usuli bor?

20. Hisoblangan divident bir qismi to'landi.Provodka bering?

21. Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urush oqibatida dollar kursi 10850 dan 11000 sumga ko'tarildi.Korxonaning 500 000 AQSh dollari debitorlik qarzi mavjud.Kurs farqi bo'yicha buxgalteriya o'tkazmasini bering?

22. 18.11.2021 kun holatiga ish haqining bazaviy hisoblash miqdori va mexnatga haq to'lashning eng kam miqdori tarzidagi daromad qancha ?

23. Buxgalteriya hujjatlarini to'ldirishda qalamdan foydalanish mumkinmi?

24. ... - hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bo'jalik operatsiyalarining amalda qonunchilikga, qoidalar me'yorlar, smetalarga muvofiqligini aniqlashdan iborat?

25. ... - hujjatlarni qayd etilgan xo'jalik operatsiyalarining puldagi bahosini belgilaydi?

26. Xodimni ishga qabul qilish uchun buyruq chiqarishga nima asos bo'lib xizmat qiladi?

27. Vaqtbay ish haqini hisob-kitob qilish uchun asosiy hujjat ... hisoblanadi?

28. Korxonaning yalpi pul tushumidan barcha xarajatlarni chiqarib tashlaganidan keyin qoladigan qismi nima deyiladi ?

29. 'Buxgalteriya hisobi — mulkchilikning xar qanday shaklidagi korxona xo'jalik faoliyatini yalpi, ... va hujjatlarga asoslangan holda aks ettirish tizimidir'. Nuqtalar o'rnini to'ldiring?

30. 'Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi – foydalanuvchilarga korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati haqida aniq, ishonchli va ... ma'lumot yetkazib berishdan iborat'. Nuqtalar o'rnini to'ldiring?

31. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining foydalanuvchilari 2 ga bo'linadi: ?

32. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining tashqi foydalanuvchilari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

33. Korxonaning aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad – xarajati, foyda – zarari bu...?

34. ...pul bahosida ifodalangan va muayyan sanaga tuzilgan, mol-mulkni uning tarkibi va joylashtirilishi xamda uni shakllantirish manbalari bo'yicha iqtisodiy guruhlashtirish va umumlashtirish usulidir?

35. Buxgalteriya balansiga ta'siri bo'yicha xo'jalik operatsiyalari nechchiga bo'linadi?

36. Sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar bu ...?

37. Quyidagilarning qaysi biri korxona davr xarajatlariga misol bo'la oladi?

38 ...muayyan xo'jalik operatsiyasini amalga oshirish huquqini beradigan yoki uning haqiqatda sodir etilganlik holatini tasdiqlaydigan yozma guvohnomadur?



39 Qamrab olish usuliga ko'ra buxgalteriya hujjatlari... ga bo'linadi?

40 To'ldirish yoki olinish paytidan boshlab ijroning yakunlanishi yoki arxivga topshirilishiga qadar hujjatlarning harakati ... deb ataladi?

41 ... - barcha rekvizitlar, imzolar to'liq va to'g'ri to'ldirilganini, matn va raqamlar tushunarli bo'lishini aniqlash maqsadini ko'zlaydi?

42. ... deb haqiqatda mavjud bo'lgan mol-mulk va moliyaviy majburiyatlarni ularni muayyan sanadagi buxgalteriya hisobi malumotlari bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlashtirishga aytiladi?

43. Mehnatga haq to'lashning asosiy shakllari qaysilar?

44. Bayram va dam olish kunlarida ishlaganlik uchun ... miqdorda haq to'lanadi?

45. Tovar – moddiy zaxiralar tarkibi?

46. Inventar va xo'jalik jihozlari tarkibi?

47. ... usuli - birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi, birinchi navbatda sotilgan yoki sarflangan tovarlar tannarxiga o'tkazilishi lozimligini nazarda tutadi?

48. Hozirda mamlakatimizda, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning daromadlariga ... foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi?

49. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar (budjet tashkilotlari va Soliq Kodekslarida keltirilgan boshqa tashkilotlardan tashqari) korxona ish haqi fondiga nisbatan ... foiz miqdorida ijtimoiy soliq to'laydilar?

50. Ishlab chiqarish jarayonida bir marotaba qatnashadigan va o'z qiymatini bir ishlab chiqarish sikli davomida to'liq ravishda yaratilayotgan mahsulotga o'tkazadigan aktivlar ... deb ataladi?

51. TMZ lar hisobdan chiqarilganda ularning haqiqiy tannarxini aniqlashning necha xil usuli bor?

52. Quyidagi qaysi asosiy vositalarga eskirish hisoblanmaydi?

53. "Hisob-kitob schyotidan mahsulot yetkazib beruvchilarga qarzni to'lash uchun pul o'tkazildi" – buxgalter o'tkazmasi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

54. Uzoq muddatli aktiv to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping ?

55. "Mol yetkazib beruvchilarga bank hisobvarag'idan bo'nak (avans) o'tkazildi" operatsiyasi uchun buxgalter o'tkazmasi to'g'ri ko'rsating ?

56. Buxgalteriya jarayonining bosqichi emas holatlarni sanang?

57. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanuvchilar to'g'risidagi quyidagi ko'rsatmalarning qaysi biri noto'g'ri?

58. Buxgalteriya registrlarida qayd etilmaydigan hodisalarni sanang?

59. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni tanlang: Sof foyda ma'lum bir vaqt oralig'ida paydo bo'ladi agar ?

60. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni tanlang: Debitlansa?

61. Odatda debet qoldig'iga ega bo'lgan hisobvaraqlar nima?

62. Yopiluvchi o'tkazmalar jurnallashtirilgandan va bosh kitobda joylashtirilgandan so'ng nol balansga ega bo'ladigan hisobvaraq ?
63. Buxgalteriya siklida talab qilinadigan bosqichlar?
64. Daromadlarni tan olish tamoyilini aytib bering?
65. Oldindan to'langan xarajatlar uchun tuzatuvchi o'tkazmalarni toping?
66. Tuzatuvchi yozuvlar nimalarni ta'minlash uchun:amalga oshiriladi?
67. Olinmagan daromadlar uchun tuzatuvchi o'tkazmalar haqida ma'lumot bering?
68. Narxlarning ko'tarilishi davrida LIFO nimaga olib keladi?
69. Buxgalteriya hisobi axborot tizimining asosiy tamoyillari nimalarni o'z ichiga oladi?
70. Nimalar kompyuterlashtirilgan buxgalteriya tizimlarining afzalligi emas?
71. Amortizatsiya qanday jarayon?
72. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining foydalanuvchilari nechchiga bo'linadi?
73. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining foydalanuvchilari qaysilar?
74. Korxonaning aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad – xarajati, foyda – zarari bu…?
75. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining tashqi foydalanuvchilari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?
76. TMZ lar qanday qiymatda balansga kirim kilinadi?
77. FIFO bu ?
78. AVECO bu?
79. TMZ bu ?
80. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar (budjet tashkilotlari va Soliq Kodekslarida keltirilgan boshqa tashkilotlardan tashqari) korxona ish haqi fondiga nisbatan … foiz miqdorida ijtimoiy soliq to'laydilar?
81. Buxgaltertuzgan balansdaaktiv va passiv summalari teng kelmasa, qaysi tamoyil buzilgan hisoblanadi?
82. Aktiv shotlar o'zida nimani aks ettiradi?
83. Buxgalteriya hisobi qanday turlarga bo'linadi?
84. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisob qanday tartibga solinadi ?
85. Quyidagilarning qaysi biri buxgalteriya hisobi ob'ekti emas?
86. Bankdan 1,5 yil muddatga olingan kredit kiradi.
87. Buxgaltertuzgan balansdaaktiv va passiv summalari teng kelmasa, qaysi tamoyil buzilgan hisoblanadi?
88. Balans –bu
89. Haridorlardan olingan avanslar kiradi.
90. Qachon Aktiv xususiy kapital summasiga teng bo'lishi mumkin ?
91. Aktiv schyotlar o'zida nimani aks ettiradi?
92. Passiv schyotlar o'zida nimani aks ettiradi?



93. Balansdan tashqari schyotlar uzida nimani aks ettiradi?
94. Buxgalteriya balansi nima?
95. Buxgalteriya funksiyalari qaysilar?
96. Buxgalteriya xisobi usullari qaysilar?
97. Xo'jalik faoliyati jarayonlari qaysilar?
98. Buxgalteriya axborotidan foydalanuvchilarni to'g'ri guruhlangan javobni ko'rsating.
99. Qaror qabul qilish jarayoni qaysi bosqichlardan iborat?
100. Boshqarish (menejment) jarayonining richag-elementlarini ko'rsating.

**Yakuniy attestatsiya sinovlarida majburiy fanlar bo'yicha bitiruvchilar bilimini baholash**

**MEZONLARI**

Bitiruvchi kurs talabalari yakuniy attestatsiya sinovlari natijalarini baholash, Qo'qon universiteti Kengashining 2024-yil 19-iyundagi 4-son bayoni bilan tasdiqlangan **"Akademik baholash tartibi"** mezonlari asosida amalga oshiriladi.

1. Bitiruvchi kurs talabalari uchun o'tkaziladigan yakuniy attestatsiya sinovlari o'zbek va rus tillarida o'tkaziladi.
2. Bitiruvchi kurs talabalarining yakuniy attestatsiya sinovlari belgilangan majburiy fanlar bo'yicha test sinovi shaklida o'tkaziladi. Bunda, test savollar 5 xil variantda tuziladi.
3. Test sinovi variantlari 50 ta test savolidan va har bir savolga ehtimoliy 4 javobdan iborat bo'ladi.
4. Yakuniy attestatsiy sinovlari natijalarini baholashda quyidagi jadvaldan foydalaniladi:

| Baho | Foiz | GPA |
|---|---|---|
| A+ | 95-100 | 4,5 |
| A | 90-94 | 4 |
| B+ | 80-89 | 3,5 |
| B | 70-79 | 3 |
| C+ | 65-69 | 2,5 |
| C | 60-64 | 2 |
| F | 0-59 | 0 |

Bunda, asosiy baholash mezoni sifatida foiz hisobidan foydalaniladi.

5. 0 – 59 oralig'ida ball to'plagan talabalar yakuniy attestatsiya sinovlaridan o'ta olmagan hisoblanadi. Yakuniy attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy attestatsiyasi sinovini keyingi yillarda qayta topshirish huquqiga ega. Bunda oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori) shaxsni yakuniy attestatsiyasi sinovini qayta topshirishga qo'yish bo'yicha buyruq chiqarishi lozim bo'ladi.



## ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Osmany Porto De Oliveira "International Policy Diffusion And Participatory Budgeting" (Ambassadors of Participation, International Institutions and Transnational Networks) - Palgrave Macmillan, "Urban Politics in a Global Society", 2017.
2. Vaxabov A.V "Soliqlar va soliqqa tortish"- Toshkent: Moliya 20190
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
4. Moliya bozori va birja ishi, A.U. Burxonov, 2023-yil
5. Xalqaro moliya bozori va institutlari, Bekmuradov A.SH., Abdullayev Z.A., Badalov B.M. 2019-yil
6. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. Buxgalteriya Hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. –624 b.
7. Hasanov B.A., va boshq. Buxgalteriya Hisobi. Darslik – T.: Iqtisodiyot dunyosi, 2021. - 992 b.
8. Salimov B.T., Yusupov M.S., Ishnazarov A.I. Mikroiqtisodiyot-2. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019. –198 b.
9.

## QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi.
2. Anthony Saunders, M.M. Cornett. Financial Markets and Institutions 7th Edition, 2012.
3. . An Introduction to Accounting Theory, 1st edition. Gabriel Donleavy, UWS, Australia 2016.
4. Ergashev E.I. va boshq. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot. Darslik. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 680 b.